JIZZAX VILOYATI PAXTAKOR TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 26 - dekabr | 268-3-52-Q/23 | Paxtakor tuman hokimligi

Paxtakor tuman hokimining 2023-yil 3-oktabrdagi 221-3-52-Q/23-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ 642-sonli Qonunining 9-bobi, 39-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori hamda tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2023-yil 13-dekabrdagi 16/10-01-78-sonli xatini inobatga olib

QAROR QILAMAN:

1. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2023-yil 13-dekabrdagi 16/10-01-78-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Paxtakor tumani hokimining 2023-yil 3-oktabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2024-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi 221-3-52-Q/23-sonli qarorining 1-qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin;

O‘zbekiston Respublikasining “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ 642-sonli Qonunining 9-bobi, 39-moddasiga asosan, “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari”ni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risidagi Qonunga asosan, tashkilotlarning ro‘yxatdagi xodimlari o‘rtacha soni yigirma nafardan ortiqni tashkil etadigan korxona, tashkilot va muassasalarda xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining 10 foiz miqdorigacha, (shu jumladan, nogironlar uchun 3 foiz) jami 54 ta ish o‘rinlarini zaxiralash ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi birinchi o‘rinbosari

Sh.Shodmonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.b. **A.Ashurov**